Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321301

ta´minlashning ustivor yo´nalishlari´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

марказлашган тизимда амалга оширувчи ва уларни ташкил этувчи истиқболли хўжалик юритувчи субъектдир.

Аслида, ҳукуматнинг кооперативларни ривожлантиришдан кўзлаган бир қанча мақсадлари мавжуд. Биринчидан, эркин иқтисодиётда бозор нархлари кескин ўзгарувчан бўлади. Бу эса, кичик ҳажмда маҳсулот ишлаб чиқарувчи кичик деҳқон хўжаликлари учун доим хатарлидир. Чунки, нархларнинг кескин тушиб кетиши, ресурслар таъминотидаги муаммолар, ҳосилни йиғиштириш жараёнидаги йўқотишлар каби муаммолар бевосита кооперативлар томонидан бартараф қилинади. Иккинчидан, ҳукуматнинг камбағалликни камайтириш дастури бўйича ер майдонларини иккиламчи ижрага ва ўзга шахсга вақтинча фойдаланишга бериш, ҳосилни етиштириш жараёнларини тўлиқ мониторинг ва назорат қилиш имконияти жуда ҳам паст. Шу боисдан, қишлоқ хўжалиги кооперативлари орқали маълум турдаги экин навларини жойлаштириш ва танлаш, шунингдек, уларнинг ривожланиш ҳолатини вегитация даврида тўлиқ мониторинг қилишда ҳам кооперативлар катта имконият ва устунликка эга. Учинчидан, экин ерларининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, унумдорлигини ошириш, тупроқ эрозисини камайтириш каби экологик муаммоларни ҳал қилишда ҳам кооперативлар муҳим ўрин эгаллайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Чариев К.А. Фермер ва деҳқон хўжаликларида кооперация жараёнларига жалб этиш. - “Ароиқтисодиёт”, №1. -Т.: - 2017 йил
2. Облоқулов А. Қишлоқ хўжалигида кооперациявий муносабатларни ташкил этиш хусусиятлари ва тамойиллари.-“Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги” журнали, №9. -Т.: -2021 й.
3. Dr. Lubwama Joseph Ntege (PhD) and Mr. Niyoyiremera Theogene. Contribution of Agricultural Cooperatives to Rural Development, Among Rice-Growers: Case of Coderika, Ruhango District, Rwanda. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) l. Vol 19 No. 1 February 2020,.;
4. MCLeod, A. 2006. Types of cooperatives. [Online]. Olympia: Northwest Cooperative Development Center. Available at: nwcdc.coop/wp-content/uploads/2012/09/CSS01-Types-of-Coops.pdf. [Accessed 2015, October 2].;

SANOAT SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH

Alimova Dilafruz
Guluston Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Abstrakt: Bu mavzu orqali biz investitsiya o’zi nima ekanligini, uning qanday turlari borligi va qanday maqsadlarga ega ekanligini, investitsiyaning mamlakatdagi o’rnini hamda Respublikamizdagi bu borada olib borilayotgan ishlarni, investorlar va ularga yaratilayotgan sharoitlarni va kelgusidagi amalga oshirilishi kerak bo’lgan loyihalar rejalari haqida bilib olishimiz mumkin.

Kalit so’zlar: Investitsiya, investor, bozor iqtisodiyoti, xorijiy investorlar, modernizatsiya, transformatsiya, innovatsiya, kapital, ichki investitsiya, tashqi investitsiya,

Kirish

Published: 23.12.2024
Cite this article: Alimova Dilafruz (2024). Sanoat sohasiga investitsiyalarni jalb qilish. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321301
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar va yangilanishlarni bosqichma-bosqich asta sekinlik bilan amalga oshirish va bu jarayon davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o’tishda o’ziga xos turtki bo’lib hisoblanadi. Bu jarayon investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishni tartibga solish

borasida ko’plab yangi va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim qarorlar qabul qilishni talab qiladi.

Tahlil va natija

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida respublika iqtisodiyotida tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishda investitsiyadan samarali foydalanilmoqa.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi majlisida nutq so'zladi. "Ushbu investitsiyalarni, eng avvalo, sanoat sohalarini modernizatsiya va transformatsiya qilish, ishlab chiqarish, kommunal va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirishga yo‘naltirish uchun aniq loyihalar va dasturlarimiz bor. Biz xorijiy investorlarni o‘zaro manfaatli yangi loyihalarni ishlab chiqish va birgalikda amalga oshirishga chaqiramiz.Sizlarni ishontirib aytmoqchimanki, Yangi O‘zbekistonda investorlar o‘zini erkin his qilishi, ertangi kunga katta ishonch bilan barqaror ishlashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beramiz.

Aynan shuning uchun bizga yaqin do‘st, xayrixoh bo‘lgan eng ishonchli investorlar ishtirokida yangi Kengashni tashkil etmoqdamiz.”

Ma’lumot o’rnida bildirib o’tish lozimki, Investitsiya (lotincha: investio - „o‘rash“) bu - iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o‘z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish. Pulning vaqtga bog‘liq qiymati nazariyasiga ko‘ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag‘lar qo‘yishdir.

Investitsiyalar kim tomonidan kiritilishiga qarab 2 turga bo‘linadi:

- Ichki investitsiyalar.
- Tashqi investitsiyalar.

Ichki investitsiyalar — mamlakat hududida ichki investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar hisoblanadi. Tashqi investitsiyalar — foyda olish maqsadida chet el investorlari tomonidan boshqa davlat iqtisodiyotiga qo‘yiladigan investitsiyalardir.

Investitsiya loyihalariga mablag’ qo’yuvchilar – investorlar, davlat, kompaniya, korxona, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo’lishi mumkin.

Bugungi iqtisodiy globallashuv jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Shu bois mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o'sishiga xizmat qiladi. Shu bois investitsion faoliyatning qo'llab - quvvatlovchi har bir davlat o'zining bu borada aniq maqsadlarni ifodalovchi yo'l xaritasini ishlab chiqadi. Xususan, mamlakatimizda ham investitsiyalarni turli sohalarga jalb etish, ularning oqimini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha turli reja va dasturlar ishlab chiqish yanada rivojlanmoqda.So‘ngi yillarda barcha tarmoqlardagi dasturlarga 31 milliard dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Natijada o‘tgan 5 yilda sanoat 1,4 barobar, eksport 1,5 barobarga oshdi.Kelgusi 5 yilda iqtisodiyot barqaror o‘sishi uchun sanoatni yana 1,5 barobarga oshirish, eksportni 30 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan. Buning uchun 120 milliard dollar sarmoya, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiya zarur.Yil yakunigacha 304 ta yirik va 3 mingta hududiy loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Ularning natijasida qo‘shimcha 10 trillion so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Ishlab chiqarish — jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste’mol va investitsiyalar uchun mo‘ljallangan

tovarlar va xizmatlarga aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. So‘ngi yillarda barcha tarmoqlardagi dasturlarga 31 milliard dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Natijada o‘tgan 5 yilda sanoat 1,4 barobar, eksport 1,5 barobarga oshdi. Kelgusi 5 yilda iqtisodiyot barqaror o‘sishi uchun sanoatni yana 1,5 barobarga oshirish, eksportni 30 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan. Buning uchun 120 milliard dollar sarmoya, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiya zarur. Yil yakunigacha 304 ta yirik va 3 mingta hududiy loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Ularning natijasida qo‘shimcha 10 trillion so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Xulosa

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, hududlarning salohiyatini oshirish uchun – mavjud tabiiy va iqtisodiy resurlarni tahlil qilish, ichki va tarmoqlararo sohadagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish, mahalliy sanoatni rivojlantirish, jumladan, oziq – ovqat, farmasevtika, to’qimachilik, ipakchilik, charm-poyabzal, zargarlik, kimyo, elektrotexnika tarmog’i, shuningdek, hunarmandchilik va qurilish materiallari ishlab chiqarish, mahalliylashtirish darajasini oshirish, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan xususiy va xorijiy investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish uchun sharoitlar yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

2.Uzreport.news

3. Turayeva, G. (2023). The significance of sustainability of grain production in the consumer basket. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 01019). EDP Sciences.

4. Gulizahro, T., Mamlakat, D., Sarvinoz, A., & Sabina, J. (2023). AGROSANOAT MAJMUASINING RAQAMLI PLATFORMALARINI RIVOJLANTIRISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(11), 49-54.

5. Turayeva, G., Suyunov, S., Ibodullayev, N., Tursunqulova, M., & Rasulova, N. (2022). SANOAT ULUSHINI OSHIRISHDAGI (XUSUSAN ENGIL SANOAT) MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 1(28), 27-31.

6. Sardor, T., Shohjahon, S., & Gulizahro, T. (2023). O’ZBEKISTONDA SUT VA SUT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNING STATISTIK TAHLILI. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 1(6), 9-11.

7. Shaxlo, O., Gulizahro, T., Madina, T. R., & Sevinch, T. U. (2023). Sanoat korxonalarida materiallar hisobini yuritishni takomillashtirish. " Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi, 2(10), 57-59.

MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING O’RNI

Alimova Dilafruz
Guluston Davlat Universiteti tayanch doktoranti